ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Published: 12.11.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/2k9kt888

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Zabar ovoz sohibasi Hadiya Yusupova ijodiga nazar

(A look at the creative legacy of Hadiya Yusupova, possessor of a powerful voice)

Mamlakat Ulasheva

Department of Maqom Vocal Performance,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: mamlakatulasheva@mail.ru

Annotatsiya

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek an’anaviy xonandalik san’atida o‘ziga xos ovoz imkoniyatlari bilan ajralib turuvchi zabar ovoz sohibasi Hadiya Yusupovaning ijrochilik faoliyati, yakka xonandalik uslubi hamda maqom san’ati rivojiga qo‘shgan ijodiy hissasini ilmiy jihatdan o‘rganish masalalari yoritiladi. Ushbu ilmiy ishda xonandaning ovoz imkoniyatlari, diapazon kengligi, tembr xususiyatlari, yuqori pardalardagi erkin ijro mahorati, nafas taqsimoti va ijro jarayonida qo‘llaniladigan vokal-texnik usullarning o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, zabar ovozning maqom asarlari ijrosidagi badiiy-estetik imkoniyatlari, kuy rivoji, ohangdorlik, avj pardalarini talqin etish hamda an’anaviy ijrochilik mezonlari bilan o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Hadiya Yusupovaning ijrochilik uslubi orqali ayollar maqom xonandaligida ovoz turlarining o‘ziga xos namoyon bo‘lishi, individual ijro talqini va milliy xonandalik an’analarining davomiyligi masalalari tadqiq etiladi. Maqolada zabar ovozning maqom musiqasidagi ifoda imkoniyatlarini aniqlash, uning ijrochilik amaliyotidagi o‘rnini belgilash hamda mazkur ovoz turiga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash ko‘zda tutiladi. Tadqiqot natijalari an’anaviy xonandalikda ayollar ovoz imkoniyatlarini o‘rganish, maqom ijrochiligi uslublarini tasniflash va yosh xonandalarni milliy ijrochilik an’analari asosida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: maqom san’ati, zabar ovoz, Hadiya Yusupova, ayol xonanda, an’anaviy xonandalik, ovoz diapazoni, vokal texnikasi, tembr, ijro uslubi, avj.

Abstract

Abstract. This article explores the performance career, solo singing style, and artistic contribution to the development of maqom art of Hadiya Yusupova, a distinguished exponent of the zabar voice, whose unique vocal capabilities distinguish her within the Uzbek traditional vocal art. The study focuses on the singer’s vocal potential, range, timbral characteristics, freedom of performance in

the upper registers, breath control, and the distinctive features of the vocal techniques employed in her performances. Furthermore, the article examines the artistic and aesthetic possibilities of the zabar voice in the performance of maqom compositions, including melodic development, expressiveness, interpretation of climactic passages in the upper registers, and its relationship with the established principles of traditional performance. Through an analysis of Hadiya Yusupova's performance style, the study investigates the distinctive manifestation of different voice types in women's maqom singing, individual approaches to musical interpretation, and the continuity of national vocal traditions. The article aims to identify the expressive potential of the zabar voice in maqom music, determine its place in performance practice, and provide a theoretical and scholarly basis for the characteristic features of this vocal type. The findings of the research are of significant academic and practical value for studying women's vocal capabilities in traditional singing, classifying maqom performance styles, and educating young singers in accordance with national performance traditions.

Keywords: maqom art, zabar voice, Hadiya Yusupova, female singer, traditional vocal performance, vocal range, vocal technique, timbre, performance style, climactic passages.

Аннотация

Аннотация. В данной статье рассматриваются исполнительская деятельность, индивидуальный стиль сольного пения и творческий вклад в развитие искусства макома Хадии Юсуповой обладательницы уникального голоса типа “забар”, отличающейся особыми вокальными возможностями в узбекском традиционном вокальном искусстве. Особое внимание уделяется вокальным возможностям певицы, широте диапазона, тембральным особенностям, свободному исполнению в верхнем регистре, распределению дыхания, а также специфике вокально-технических приёмов, используемых в процессе исполнения. Кроме того, анализируются художественно-эстетические возможности голоса типа “забар” при исполнении макомных произведений, особенности развития мелодии, выразительности, интерпретации кульминационных участков в верхнем регистре, а также взаимосвязь данного типа голоса с традиционными исполнительскими критериями. На примере исполнительского стиля Хадии Юсуповой исследуются особенности проявления различных типов голоса в женском исполнительстве макома, индивидуальная интерпретация музыкальных произведений и преемственность национальных вокальных традиций. Цель статьи заключается в выявлении выразительных возможностей голоса типа “забар” в музыке макома, определении его места в исполнительской практике, а также научно-теоретическом обосновании характерных особенностей данного типа голоса. Результаты исследования имеют важное научно-

практическое значение для изучения вокальных возможностей женщин в традиционном вокальном искусстве, классификации исполнительских стилей макома и воспитания молодых певцов на основе национальных исполнительских традиций.

Ключевые слова: искусство макома, голос типа “забар”, Хадия Юсупова, певица, традиционное вокальное искусство, диапазон голоса, вокальная техника, тембр, исполнительский стиль, кульминация.

Muxlislar yuragida zabardast ijrolari bilan abadiyga muhrlangan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Hadiya Yusupova o‘zbek ashula ijrochiligida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan san’atkorlardandir. San’atkorning fitratida maqom san’atini hayoti va umrining asosi deb bilish oliy darajada bo‘lgan. Hadiya Yusupova 1938-yili sentabrda Namanganda tug‘ilgan. Onasi Sharofatxon ona ijrosidagi qo’shiq xirgoyilari hamda dutor chalishlari yosh Hadiyaning san’atga, ayniqsa xonandalikka bo’lgan sevgisini uyg’otgan.

Bo’lajak xonanda Hadiyaxon maktabda o‘qib yurgan kezlaridayoq o‘tkaziladigan tadbirlarning barchasida ishtirok etib, o‘qituvchilari hamda tengdoshlari olqishiga sazovor bo‘lgan.

Hadiya Yusupovada qo‘shiq aytishga havasning uyg‘onishiga o‘sha go‘zal, gullar shahri Namanganning madaniy muhiti, o‘sha yerdan yetishib chiqqan taniqli san’atkorlarning ijodi ham turtki bo‘lgan deb aytish mumkin. Mukarrama Azizova, Mavluda A’zamova, Berta Davidova, Kommuna Ismoilovalardan g‘oyibona o‘rgangan qo‘shiqlari qanot bag‘ishlagan bo‘lishi ehtimollidir. Ayniqsa, “Ne navo”, “Galdir”, “Girya”, “Fig’on”, “Samarqand Ushshog‘i”, Faxriddin Sodiqov bastalagan qo‘shiqlar bilan u tuman va shahar miqyosida o‘tkaziladigan barcha tadbirlarda muvaffaqiyat bilan ishtirok etadi. Hadiyaxon o‘rta maktabni bitirgan yili yosh iste’dodlar tanlovi bo‘lib o‘tadi. Hadiya Yusupova tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Tanlovda ishtiroki ustozlar tomonidan e’tirof etilib, yosh xonanda Toshkent shahridagi filarmoniyaning xor jamoasiga ishga taklif etiladi. Hadiya Yusupova xor jamoasida soha mutaxassislari bilan ishlab, ovoziga sayqal beradi. Ashula aytishda o‘ziga xos yo‘lni egallagandan keyin, 1958-yili O‘zbekiston radio komitetida tashkil qilingan xalq cholg‘ulari orkestriga xonanda bo‘lib ishga kiradi.

Ko‘p o‘tmay, betakror sozandalar Turg‘un Alimatov va doirachi Shukrullo Hamdamovlar taklifi bilan maqom ansambliga ishga o‘tadi. Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Kommuna Ismoilova, Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev, Orif Alimaxsumov, Isoq Kattayev, Berta Davidova, Ilhom To‘rayevlardek taniqli ustoz sozanda va xonandalar bilan ish boshlagan Hadiyaxon o‘z bilimi hali yetarli darajada emasligini payqaydi va ustozlar maslahati bilan Toshkent teatr va rassomchilik san’ati institutiga o‘qishga kiradi. Ayni chog‘da Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida o‘z tajribasini oshiradi. Kunduzlari o‘qib, kechqurunlari teatr konsertlarida, spektakllarida qatnashadi. “Shohsanam va G‘arib”da Shohsanam, “Toshbolta oshiq”da Salomat obrazlarini yaratadi.

Hadiya Yusupovaning ijodiy yuksalishida bastakor Faxriddin Sodiqovning xizmati katta bo‘lgan. Bastakor yosh xonandaning dardli, shirali ovozi uchun maxsus ashulalar bastalagan, o‘rgatgan va xonanda kamolotida muhim ijodiy muhit paydo bo‘lishida ustozlik qilgan. Ko‘p qo‘shiqlar o‘rgatib, elga tanitgan.

Xonandaning ijodiy yo‘lida musiqali drama teatrlaridagi faoliyati alohida o‘rin tutadi. Hadiya Yusupovaning Sadriddin Ayniy nomidagi Buxoro viloyat musiqali drama teatridagi faoliyati eng samarali va mazmunli bo‘lganini alohida e’tirof etish lozim. O‘sha yillardagi “Ravshan va Zulhumor”da Zulhumor, “Zebi-Zebona”da Zebo, “Farg‘ona hikoyasi”da Umida kabi ko‘plab obrazlarini yaratishi unga mashhurlik olib kelgan. 1970-yili Hadiya Yusupovaga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni beriladi.[1]

1971-yildan Toshkentga qaytib, yana maqom ansamblida o‘z faoliyatini davom ettiradi. Ko‘plab maqom va xalq ashula yo‘llarini o‘rganadi va ular radioning oltin fondiga yozib olinadi. Hadiya Yusupova o‘zining o‘tkir zehni bilan, o‘zining odobi, ovozi bilan ustozlar mehrini qozonadi. Faxriddin Sodiqovning bastalagan 30 dan ortiq ashulalarini ijro etadi. Ayniqsa, ustozning o‘zlari dutorda jo‘r bo‘lgan “Bir go‘zal”, “Go‘zal”, “Namoyon qil” qo‘shiqlari, shuningdek, “Yor bilib” ashulasini mahorat bilan ijro etadi. Hadiya Yusupova ansamblda birga ishlagan Rahimaxon Yo‘ldosheva bilan jo‘rnavozlikda ko‘p qo‘shiqlarni ijro etib, magnit tasmasiga yozdirgan. “Shohi belbog” (Nabijon Hasanov musiqasi), “Ko‘ngil ol” (Orifjon Hotamov), “Qashqarchai savti sabo”, “Navro‘zi sabo”, “Chapandozi navo” kabi ashulalar shular jumlasidandir. [2]

Hadiya Yusupova bilan birga maqom ansamblida faoliyat olib borgan O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Yo‘ldoshev ustoz haqida shunday fikr bildirgan: “Men 87-yilda maqom ansambliga kelgan bo‘lsam, o‘shanda Hadiya opam 50 ga ham bormagan, 40 yoshlarda bo‘lganlar. Rosa navqiron, ovozlari ham yetilgan edilar. Men yoshligimda qishloqda yurgan paytlarimda Hadiya opamning ijro etgan ashulalarini tinglab katta bo‘lganmiz. Ayniqsa, Hadiya opamning “Bir go‘zal” ashulasini eshitganimda 10 yosh edim. Bu ashulani tinglaganimda Hadiya opamning ijrosi yuragimni teshib yuborgan, chunki o‘sha paytlarda san’atga qiziqishim ortgan, yosh bo‘lsam-da, san’atkorlarning asl ijrolarini tinglar edim” deganlar. [3]

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Matluba Dadaboyevaning Hadiya Yusupova haqida aytgan fikrlari qimmatlidir: – “Men Namangandan 20 yoshligimda maqom ansambliga kelganimda, ko‘zlarim Hadiya opamga tushgan. Ansamblga kelganimda Berta Davidova, Hadiya Yusupova, Kommuna Ismoilova, Mahbuba Hasanovalar ishlar edilar. Ansambldagi mukammal ijrolarni ko‘rib, men bu yerda ishlay olmayman, bunaqangi qiyin ashulalarni ijro eta olmayman deganimda, ana

shu opajonlarim o‘z maslahatlarini berib, meni maqomchi qildilar. Hadiya opam juda ham kamtarin, qo‘li ochiq, hech kimdan o‘zining maslahatlarini ayamaydilar. Men Hadiya opamni 2-onamdek ko‘raman. Hadiya opam meni haqiqatan ham boshqacha yaxshi ko‘rar edilar. Ular nafaqat menga ijro yo‘llarini o‘rgatib, menga yordam berar, balki hayotiy vaziyatlarda ham menga saboq berardilar”. [3]

Xonanda Hadiya Yusupovaning ijro uslubini tahlil qiladigan bo‘lsak, gulligi ovoz chiqarish uslubida ijro qiluvchi xonandadir. Ushbu ovoz chiqarish usulida ko‘proq tovush o‘pka tebrantiruvchilaridan chiqishi va tomoq bilan og‘iz bo‘shlig‘i orqali tashqariga yo‘nalishi natijasida yuzaga keladi. Ovozning yuqori pardalarida ham bosh tebrantiruvchilar va tanglay deyarli ishlamaydi. Bunday uslubda yuqori ovoz pardalarini olish uchun tomoqqa zo‘r berib, tomoq qon tomirlari bo‘rtib chiqadi hamda shishadi. Ustozlarning aytishicha, bunday ovoz chiqarish uslubidagilar tovushlarining yuqori registrlarida tomog‘i shishib, tomirlari bo‘rtib chiqqanida chetdan kuzatilganda xonandaning bo‘yin qismi gullaganga o‘xshab ko‘rinar ekan, shuning uchun ham bu uslubni gulligi deyishar ekan. [4]

Xonandaning ovoz turi esa, metsso-sopranodir. Bu turdagi ovozlar haqiqiy hissiyotga to‘la, asl jozibali ayol ovozidir. Bunday ovoz turi jamiki ayol zoti ovozlarini o‘z ichiga jamlagan desak xato bo‘lmaydi. Chunki unda ayollarga xos noziklik, o‘ta hissiyotlilik, nafislik mujassamdir. Bundan tashqari alt ovoz turlariga o‘xshash kuchlilik, jarangdorlik, to‘liqlik, yuqori soprano ovoz turlariga xos mayinlik, nozik tabiatlik kabi sifatlari aynan metsso-soprano ovoz turi sifatlaridandir.

Ayol maqom xonandalari ovozini milliy ijrochilik amaliyotiga yaqin mezonlarda tavsiflash maqsadida baland, o‘rta va past ovoz qatlamlariga muvofiq “Zabar”, “Vosit” va “Muazzam” [5, 231-b.] nomlari taklif etilgan. Mazkur tasnif akademik vokaldagi soprano, mezzo-soprano va alt tushunchalarini aynan

takrorlamaydi, balki ovozning registri, tembri, salobati, ijrodagi vazifasi va dasturga mosligini ifodalovchi shartli-tavsifiy yondashuv hisoblanadi.[6]

“Zabar” ovoz tabiatiga yaqin ijroda avj, jarang va tovushning ochiq chiqishi muhim bo‘ladi. Biroq maqomda baland ovozning o‘zi ustunlik bermaydi; u parda salobati, matn va usul bilan boshqarilmasa, ta’sir tashqi effekt darajasida qoladi. Hadiya Yusupova kabi xonandalar tajribasida baland, ochiq ovoz imkoniyati ijroiy mas’uliyat bilan birlashgani uchun qimmatlidir.

Yuqoridagi mezonlarga tayanadigan bo‘lsak, Hadiya Yusupova zabar ovoz sohibasidir.

Hadiya Yusupova juda ko‘p bastakorlar bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Xonanda Faxriddin Sodiqov, Jo‘raxon Sultonov, Sultonali Hayitboev, Nabijon Hasanov, Eson Lutfullaev, Ahmadjon Dadaev, Abduhoshim Ismoilovlar kabi yetuk bastakorlar yaratgan ko‘plab nodir asarlarini ijro etgan.

Uning ijrosida yangragan eng go‘zal namunalardan biri bu Abduhoshim Ismoilov musiqasi, Saida Zunnunova so‘zi bilan ijro etilgan “Laylining savdosidur” ashulasidir.

Bastakor bu ashulani aynan xonanda Hadiya Yusupova uchun bastalagan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor Komila Bo‘rievaning e’tirof etishicha, Abduhoshim Ismoilov aynan shu asar uchun O‘zbekiston bastakorlari uyushmasiga qabul qilingan. Quyida Hadiya Yusupova ijrosida go‘zal talqinda yangragan “Laylining savdosidur” ashulasining tahlilini keltiramiz.

Yer yuzin tutgan shu kunda yorning g‘avg‘osidur,
Mani andin ayirgan ham g‘ayrining ig‘vosidur.
Qo‘ymayin bir dam oyog‘in bu junun ko‘chasiga,
Boshima solgan bu kunni Laylining savdosidur.
Taskin izlab qaydanam yulduzli tunni qumsadim,
Bu ilohiy qahr ila kelgan ko‘zingning yoshidur.

Baxt olib ketmish bu yurtdan sarvdek qaddin ko‘rib,
Endi orzuyim hamisha suhbati, siymosidur.
Toqqa bosh qo‘ygan chog‘imda lolazorga to‘kdi yosh,
Tonggacha dog‘i judolik ichra dil nolosidur.
Ne ajab, qo‘shsa zamindin korini hargiz demay,
Ishq ahlining ko‘nglin olmoq-bu jahon g‘avg‘osidur,
Boshima solgan bu kunni Laylining savdosidur.

Qayd etish lozimki, umuman ayol ovozi uchun yaratilgan turfa asarlar ichida “Laylining savdosidur” ashulasi ayrim ajoyib xislatlari bilan alohida ajralib turadi. Bizningcha, bu ashula ochiq sahna uchun mo‘ljallangan, ya’ni tom ma’noda hozirgi zamon konsertbop namunalaridan emas. Aksincha, unda lirizm, ijro dardi, o‘zbek ayollarining Toshkent-Farg‘ona mahalliy uslubiga monand ko‘hna musiqa an’analari o‘zining jonli-zamonaviy ifodasini topgan. Aynan shu “Laylining savdosidur” ashulasida hijron va yor vasli yorqin, she’riy-musiqiy vositalarda ham, ijro uslubida ham badiiy mukammal darajada tarannum etilgan deyish mumkin. Xonandaning boy ichki dunyosi, ishq bobida oshiqning quvonchli damlari va yashirin dardu hasratlari nafis she’r bilan holatga mos kuy orqali nihoyatda ta’sirchan izhor etilgan. Bunday she’riy-musiqiy jarayonda gavdalantirilgan siymoning haroratli hayajonlari beixtiyor pinhona yozilayotgandek tuyuladi. Ashula mungli, biroz o‘ychan, ba’zan iztirobli, ammo beozor yangraydi. Ayni paytda, “Laylining savdosidur” ashulasi umidbaxsh kayfiyat ulashuvchi, pok ko‘ngilning zavqli taronasiga aylangan.

Ashulaning so‘z va ohang mutanosibligida, yaxlit shaklu shamoyilida ajib nafosat uyg‘unligi vujudga keladi. Ehtimol, bastakor “Laylining savdosidur” ashulasini maqom ohanglariga moyil, unga uslubiy o‘xshatma tarzida yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygandir. Hatto shunday bo‘lganda ham, muhimi, bu amalni qoyilmaqom darajada uddalay olgan.

Xulosa qilib aytganda, Hadiya Yusupovaning ijodiy merosi o‘zbek an’anaviy xonandalik san’ati, xususan, maqom ijrochiligi tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Xonandaning betakror ovoz imkoniyatlari, keng diapazoni, o‘ziga xos tembr xususiyatlari hamda murakkab ijro usullarini mahorat bilan qo‘llashi uning ijodiy qiyofasini belgilovchi muhim jihatlardandir. Ayniqsa, zabar ovoz imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, yuqori pardalardagi tovushlarni tabiiy, ravon va badiiy ta’sirchanlik bilan ijro etishi uning xonandalik mahoratini namoyon etadi.

Hadiya Yusupova ijrochiligida milliy xonandalik an’analariga sadoqat, musiqiy matn va she’riy mazmunning uzviy uyg‘unligi, kuy rivojidagi nozik jihatlarni his etish hamda ijro jarayonida o‘ziga xos badiiy talqin yaratish xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning repertuaridan o‘rin olgan ashula va maqom namunalarida ijrochining individual uslubi, musiqiy tafakkuri va ovoz madaniyati mujassamlashgan.

Shuningdek, xonandaning ijodiy faoliyati o‘zbek ayol xonandalari ijrochilik an’analarining rang-barangligini, ayollar ovozining keng badiiy-estetik imkoniyatlarini hamda milliy musiqa merosini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Hadiya Yusupovaning ijodiy merosini ilmiy jihatdan o‘rganish va targ‘ib etish o‘zbek milliy xonandalik maktabining tarixiy taraqqiyotini yoritish, uning noyob ijro an’analarini asrab-avaylash hamda kelajak avlod uchun munosib ijodiy-ma’naviy meros sifatida saqlab qolishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komila Bo‘rieva bilan suxbat materiallari. 19.09.2026 yil.
2. R.Samadov.Faxriddin Sodiqovning bastakorlik ijodiyoti //Maqom ijodiyotining dolzarb masalalari.II-Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025.
3. “Mehr ko‘zda” ko‘rsatuvi, 64-son.
4. Isroilova H. An’anaviy hofizlik san’ati. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2007.
5. Navoi asarlari lug‘ati. Toshkent, 1972.
6. Ulasheva M., Berdixanova Sh. Maqom xonandaligida ayol ovozlari tasnifi // Sharq maqomotining yangi tendensiyalari: an’ana va innovatsiyalar uyg‘unligi: III xalqaro ilmiy-

amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “Bookmany Print”, 2026. – B. 486-488.

References

1. Bo‘riyeva, K. *Suhbat materiallari [Interview materials]*. September 19, 2026. (in Uzbek)
2. Samadov, R. “Faxriddin Sodiqovning bastakorlik ijodiyoti [The Compositional Oeuvre of Fakhriddin Sodiqov].” *Maqom ijodiyotining dolzarb masalalari* [Current Issues in Maqom Creativity]. Proceedings of the 2nd International Scientific and Practical Conference. Tashkent, 2025. (in Uzbek)
3. “Mehr ko‘zda” ko‘rsatuvi, 64-son [Mehr ko‘zda Television Program, no. 64]. (in Uzbek)
4. Isroilova, H. *An’anaviy hofizlik san’ati [The Art of Traditional Singing]*. Tashkent: Voris-nashriyot, 2007. (in Uzbek)
5. *Navoiy asarlari lug‘ati [Dictionary of Navoi’s Works]*. Tashkent, 1972. (in Uzbek)
6. Ulasheva, M., and Sh. Berdixanova. “Maqom xonandaligida ayol ovozlari tasnifi [Classification of Female Voices in Maqom Singing].” *Sharq maqomotining yangi tendensiyalari: an’ana va innovatsiyalar uyg‘unligi* [New Trends in Eastern Maqom Studies: The Harmony of Tradition and Innovation]. Proceedings of the 3rd International Scientific and Practical Conference. Tashkent: Bookmany Print, 2026, 486–488. (in Uzbek)